



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

TARIXIY AFSONALARDA SHOHLAR OBRAZI (AMIR TEMUR MISOLIDA)

Rahmonova Mahbuba Ravshanovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek xalq tarixiy afsonalarida shohlar obrazining badiiy va g'oyaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, afsonaviy va tarixiy shohlar — Jamshid, Zahhok, Faridun, Qayoniylar sulolasi vakillari hamda buyuk sarkarda va hukmdor Amir Temur obrazining xalq og'zaki ijodida aks etishi yoritiladi. Tadqiqotda Amir Temur haqidagi afsonalar misolida shoh obrazining badiiy ideallashtirilishi, karomatli va muqaddaslik darajasiga ko'tarilishi, shuningdek, xalq tarixiy xotirasi va tasavvuridagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tarixiy afsona, shoh obrazi, Amir Temur, xalq og'zaki ijodi, karomat, badiiy timsol, tarixiy xotira.

ОБРАЗ ЦАРЕЙ В ИСТОРИЧЕСКИХ ЛЕГЕНДАХ (НА ПРИМЕРЕ АМИРА ТЕМУРА)

Рахмонова Махбуба Равшановна
Ташкентский университет прикладных наук, профессор

Аннотация

В статье анализируются художественно-идейные особенности образа царя в узбекских народных исторических легендах. Особое внимание уделяется образам легендарных и исторических правителей — Джамшида, Заххака, Фаридуна, представителей династии Каянидов, а также великого полководца и государя Амира Темура. На примере легенд об Амуре Темуре раскрываются процессы художественной идеализации образа правителя, его возвышение до уровня сакральности и наделение сверхъестественными качествами, а также его место в народной исторической памяти и коллективном воображении.

Ключевые слова: историческая легенда, образ царя, Амир Темур, устное народное творчество, каромат, художественный образ, историческая память.

THE IMAGE OF KINGS IN HISTORICAL LEGENDS (THE CASE OF AMIR TEMUR)

Rahmonova Mahbuba Ravshanovna
Tashkent University of Applied Sciences, Professor

Abstract

This article analyzes the artistic and ideological features of the image of kings in Uzbek folk historical legends. Special attention is given to both legendary and historical rulers such as Jamshid, Zahhak, Faridun, representatives of the Kayani dynasty, as well as the great commander and ruler Amir Temur. Using legends about Amir Temur as examples, the study examines the artistic idealization of the ruler's image, his elevation to a sacred and charismatic status, and his significance within folk historical memory and collective imagination.

Keywords: historical legend, image of the king, Amir Temur, oral folklore, charisma, artistic image, historical memory.

Tarixiy afsonalar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va boy janrlaridan biri bo'lib, ular orqali tarixiy shaxslar va voqealar xalq ongida shakllangan badiiy va ma'naviy tafakkur asosida talqin etiladi. Bunday afsonalarda real tarixiy haqiqat har doim to'liq va aniq aks ettirilmaydi; aksincha, xalq tasavvuri, orzu-umidlar, axloqiy va ma'naviy mezonlar ustuvor bo'ladi. Shu sababli tarixiy afsonalar tarixiy manba sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, badiiy dunyoqarashi va ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarini o'rganish uchun muhim madaniy fenomen sifatida baholanadi.

Tarixiy afsonalarda ko'pincha shohlar, sarkardalar va hukmdorlar markaziy obraz sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Jamshid, Zahhok, Faridun va Qayoniylar sulolasiga mansub afsonaviy shohlar Sharq folklorida keng tarqalgan bo'lib, ular adolat, zulm, jasorat, donolik va karomatli fazilatlarini mujassam etgan timsollar sifatida gavdalanadi. Ushbu obrazlar xalq tasavvurida hokimiyat, qudrat va axloqiy prinsiplarni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, shohlarning badiiy talqini xalq hikoyachiligi, epik an'analar va ramziy obrazlar orqali boyitiladi.

Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asari bu jihatdan alohida e’tiborga loyiqdir. Unda afsonaviy shohlar — Jamshid, Zahhok, Faridun va Qayoniylar — xalq afsonalariga xos badiiy ruh, epik formulalar va mifologik tasavvurlar bilan tasvirlangan. “Shohnoma”dagi shohlar obrazi xalq og’zaki ijodidagi an’anaviy syujetlar va ramziy timsollar bilan uzviy bog’liq bo’lib, ularning adolatparvarligi, qudrati, jasorati va dono fazilatlarini o’quvchi va tinglovchiga xalq tarixiy ongining mohiyatini yetkazadi.

O’zbek xalq afsonalarida tarixiy shohlar, xususan, Amir Temur kabi buyuk sarkarda va hukmdor shaxs sifatida nafaqat siyosiy va harbiy faoliyati, balki bunyodkorlik, ma’naviy yetuklik va karomatli fazilatlarini bilan ham talqin etiladi. Samarqand, Shohi Zinda, Ahmad Yassaviy va Zangi ota maqbaralari bilan bog’liq afsonalar Amir Temurning xalq ongidagi muqaddas shaxs sifatida qadrlanishini ko’rsatadi. Shuningdek, afsonalarda shohlarning nazarining o’tkirligi, aql-zakovati va adolatparvarligi kabi fazilatlarini ularni oddiy insonlardan farq qiluvchi, tarixiy va badiiy jihatdan ideal timsolga aylantiradi.

Shu bilan birga, tarixiy afsonalar shoh obrazini xalq ma’naviyati, tarixiy xotirasi va badiiy tasavvuri bilan bog’lab, ularni turli syujet va motivlar orqali talqin etadi. Bu esa shohlarning xalq tarixidagi o’rni va ahamiyatini yanada boyitadi, tarixiy voqealarni xalq ongida o’ziga xos, badiiy va ma’naviy jihatdan shakllangan tarzda saqlashga xizmat qiladi. Natijada, tarixiy afsonalar nafaqat tarixiy shaxslar, balki xalq dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlarini va badiiy tafakkurining muhim manbai sifatida qaraladi.

Hukmdor, shoh va sarkarda Amir Temur obrazi ishtirok etgan “Amir Temur g’ori” afsonasi [1.109] mohir sarkardaning, Sohibqironning topqirligini madh etishga qaratilgan. Hisor tog’idagi Amir Temur g’ori haqida shunday afsona bor: aytishlaricha, Tarag’ay qishlog’ida tug’ilgan Temurbek ulg’aygach, tez orada Shahrisabz bekligini o’z qo’liga oladi. Keyinchalik Samarqand amirining ovda ekanligidan foydalanib, shaharning qadimiy qal’asini bosib oladi. Ammo oradan bir yarim oy o’tgach, jangda mag’lub bo’lib, o’zining sodiq navkarlari bilan Hisor tog’iga chekinishga majbur bo’ladi. Bu uning ilk, ammo so’nggi mag’lubiyati ekan.

O’zbek xalq afsonalari orasida tarixiy shaxs sifatida Amir Temur obrazi alohida o’rin egallaydi. U xalq tasavvurida nafaqat buyuk sarkarda va qudratli hukmdor, balki bunyodkor, adolatparvar va karomatli shaxs sifatida ideallashtiriladi. Amir Temurning obodonchilik ishlari, muqaddas maskanlarga e’tibori, dono qarorlari va favqulodda qobiliyatlari afsonalarda badiiy bo’rttirishlar orqali tasvirlanadi. Natijada uning obrazi oddiy tarixiy shaxs darajasidan ko’tarilib, xalq ongida muqaddaslik va avliyoona fazilatlar bilan uyg’unlashgan timsolga aylanadi.

Shu bois tarixiy afsonalarda shohlar obrazi, ayniqsa, Amir Temur timsoli xalq dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va ma’naviy ideallarini anglashda muhim manba hisoblanadi. Bunday afsonalar orqali xalq o’z tarixiga baho beradi, ideal hukmdor haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi hamda kelajak avlodlarga axloqiy va tarbiyaviy qadriyatlarni yetkazadi.

Tasavvufshunos Najmiddin Komilov: “Karomat ko’rsatish, g’ayb asroridan ogohlik, xoriqulodda holatlarni namoyon qilish mashoyih va avliyolarning xislatidir”, — deb yozadi va bunga “nazarning o’tkirligi” ham mansubligini ta’kidlaydi [2.179-181]. Demak, yuqoridagi afsonada Amir Temurni avliyolarga xos bo’lgan “nazarning o’tkirligi” xislati bilan tasvirlash orqali uning oddiy insonlardan farqli ravishda, g’aroyib fazilatli, avliyo darajasidagi ulug’ inson ekanligiga urg’u berilayotir.

Tarixiy afsonalarning katta qismida shohlar obrazi tarixiy haqiqat va badiiy to’qimaning o’zaro uyg’unligi asosida tasvirlanadi. Bunday afsonalarda tarixiy shaxs yoki voqealar xalq tasavvuri, mifologik qarashlar va badiiy bo’rttirishlar bilan boyitilib, ramziy ma’no kasb etadi. Afsonaviy shohlar — Jamshid, Zahhok, Faridun hamda Qayoniylar sulolasi vakillari Sharq folklorida adolat va zulm, bunyodkorlik va vayronkorlik, qudrat va halokat kabi qarama-qarshi tushunchalarning timsoli sifatida gavdalanadi. Ushbu obrazlar orqali xalq hokimiyatga bo’lgan munosabatini, tarixiy tajribasini va ijtimoiy adolat haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi.

Jamshid obrazi ko’pincha adolatli va qudratli hukmdor sifatida tasvirlanib, uning saltanat davri farovonlik va taraqqiyot ramzi sifatida talqin etiladi. Zahhok obrazi esa zulm va shafqatsizlik timsoli bo’lib, u orqali cheksiz hokimiyatning halokatli oqibatlarini ko’rsatib beriladi. Faridun timsolida esa adolatni tiklovchi, zulmga qarshi kurashuvchi shoh obrazi shakllanadi. Qayoniylar sulolasi vakillari haqidagi afsonalar esa hukmdorlikning ilohiy kelib chiqishi va shohlikning muqaddasligi g’oyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Demak, afsonaviy shohlar obrazi nafaqat tarixiy xotirani, balki xalqning axloqiy va siyosiy qarashlarini ham mujassam etadi.

O’zbek xalq tarixiy afsonalarida Amir Temur obrazi alohida o’rin tutib, u yuksak badiiy darajada ideallashtirilgan tarixiy shoh timsoli sifatida namoyon bo’ladi. Afsonalarda Amir Temur nafaqat qudratli hukmdor va mohir sarkarda, balki bunyodkor, dono va karomatli shaxs sifatida tasvirlanadi. Samarqand

shahrining obodonchiligi, Shohi Zinda majmuasi, Ahmad Yassaviy va Zangi ota maqbaralari bilan bog‘liq afsonalar uning xalq ongida muqaddas va e‘zozlangan shaxs sifatida qabul qilinganini ko‘rsatadi. Ushbu afsonalarda Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati tarixiy haqiqat asosida bo‘lsa-da, badiiy to‘qima orqali yanada yuksak ma‘naviy mazmun bilan boyitiladi.

Xususan, Ahmad Yassaviy maqbarasi haqidagi afsonada Amir Temurning ilohiy ishoraga bo‘ysunishi, avliyolar vasiyatiga chuqur hurmat bilan qarashi va o‘z shaxsiy istagidan kechib, muqaddas burchni ustuvor qo‘yishi tasvirlanadi. Bu holat hukmdorning faqat siyosiy arbob emas, balki ma‘naviy yetuk, taqvodor shaxs ekanligini ta‘kidlashga xizmat qiladi. Afsonalarda uchraydigan Amir Temurning “nazari o‘tkirliги”, ya‘ni ko‘z qarashi bilan dushmani yengishi haqidagi motivlar esa uni oddiy insonlardan farqli, avliyolarga xos karomatli fazilatlarga ega shaxs sifatida talqin etishga zamin yaratadi. Bu kabi motivlar xalq tasavvurida hukmdorni ilohiy quvvat bilan siylangan shaxs darajasiga ko‘taradi.

“Amir Temur g‘ori” haqidagi afsona shoh obrazining yana bir muhim jihatini — topqirlik, aql-zakovat va sabr-bardoshlilik fazilatlarini yorqin ifodalaydi. Afsonada Amir Temur dastlabki mag‘lubiyatdan keyin ham tushkunlikka tushmay, donishmand piringning maslahatiga amal qilib, vaziyatni puxta rejalashtirish orqali g‘alabaga erishadi. Bu syujet orqali xalq ongida shohning haqiqiy qudrati faqat jismoniy kuch va harbiy salohiyatda emas, balki aql, sabr va dono qaror qabul qilish qobiliyatida ekanligi haqidagi g‘oya ilgari suriladi.

Amir Temur haqidagi tarixiy afsonalar shoh obrazini xalq idealiga mos tarzda shakllantiradi. Ushbu afsonalarda hukmdor qudrati adolat, ma‘naviyat va bunyodkorlik bilan uyg‘un holda talqin etilib, shoh obrazi xalq tarixiy xotirasi va milliy ongida muhim ma‘naviy timsol sifatida mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy afsonalarda shohlar obrazi xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va badiiy tafakkuri mahsuli sifatida shakllanadi. Ushbu afsonalarda tarixiy shaxslar obrazlari badiiy ideallashtirish, ramziy talqin va mifologik unsurlar bilan boyitilib, avlodlardan avlodga o‘tuvchi ma‘naviy qadriyatlar tizimini yuzaga keltiradi. Shohlar obrazi orqali xalq o‘zining hokimiyat, adolat, zulm va bunyodkorlik haqidagi qarashlarini ifodalaydi hamda tarixiy voqelikka munosabatini bildiradi.

O‘zbek xalq tarixiy afsonalarida Amir Temur obrazi alohida e‘tiborga loyiq bo‘lib, u shoh, sarkarda va bunyodkor timsolida yuksak darajada ideallashtirilgan. Afsonalarda Amir Temur nafaqat qudratli hukmdor va g‘olib lashkarboshi, balki dono, adolatparvar va muqaddas shaxs sifatida talqin etiladi. Unga avliyolarga xos karomatli fazilatlarning yuklanishi xalq ongida buyuk tarixiy shaxsning ilohiy quvvat bilan siylangan obrazini yaratishga xizmat qiladi. Bu holat xalqning o‘z tarixiga, buyuk ajdodlariga bo‘lgan cheksiz ehtiromi va milliy iftixorini ifodalaydi.

Tarixiy afsonalardagi shohlar obrazini mavzu va mazmun jihatidan alohida guruh sifatida tasniflash mumkin. Ushbu guruhga kiruvchi afsonalarda mashhur hukmdorlar hayoti, faoliyati va shaxsiy fazilatlari xalq tasavvuri asosida qayta yaratiladi, tarixiy haqiqat esa badiiy to‘qima bilan uyg‘unlashadi. Natijada shoh obrazi nafaqat tarixiy shaxs sifatida, balki axloqiy-me‘yoriy ideal, ya‘ni xalq orzu qilgan mukammal hukmdor timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu ma‘noda, tarixiy afsonalar o‘zbek folklorining g‘oyaviy-ma‘naviy boyligini, milliy tafakkur darajasini va tarixiy ongning shakllanish jarayonini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Ular tarix va afsonaning uzviy bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatib, xalqning o‘tmishga munosabati, ma‘naviy qadriyatlari va estetik qarashlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ipak yo‘li afsonalari. Joy nomlari bilan bog‘liq afsonalar / tuzuvchi: M. Jo‘rayev. – Toshkent: Fan, 1993. – 128 b.
2. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at hamda “O‘zbekiston” nashriyotlari, 1999. – 179–181-b.